O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 1308
“20” 06 2026 yil

“TASDIQLAYMAN”
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar fakulteti dekani
_____ Z.O.Muminova
“18” 06 2026-yil

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
FANNING O`QUV DASTURI
(kunduzgi ta`lim shakli 5-semestr)

Bilim sohasi:	**500 000-Tabiiy fanlar matemetika va statistika**
Ta’lim sohasi:	**540 000- Matemetika va statistika**
Ta’lim yo’nalishi:	**60530600- Matematika va matemetik modellashtirish**

Samarqand-2026

Mazkur o‘quv dasturi Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Kengashining 2026-yil 27-avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur o‘quv dasturi **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti** Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetining **“Pedagogika va umumiy psixologiya”** kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

K.Xasanova - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, **“Pedagogika va umumiy psixologiya”** kafedrasi professori.

Taqrizchilar:

Tashqi taqrizchi

E.Abdumannotova – Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti p.f.b.f.d. (PhD) (tashqi)

1. Fan ma'lumotlari								
Fan/modul kodi UP1308	**O'quv yili** 2026-2027	**Semestr** 5				**ECTS-Kreditlar** 4		
Fan/modul turi Majburiy	**Ta'lim tili** O'zbek	**O'quv rejadagi tartib raqami** 60540100 –1308				**Haftadagi dars soatlari** 4		
Fanning nomi Umumiy pedagogika va psixologiya	**Jami yuklama (soat)**	**Auditoriya mashg'ulotlari jami – 48 soat, shundan:**				**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Kurs ishi**	
		Ma`ruza	**Amaliy**	**Lab.**	**Sem.**			
	120	24	0	0	24	72	0	

2. Fanning mazmuni
Fanning maqsadi – Bo`lajak mutaxassislarni psixologiya va pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta`lim-tarbiya nazariyasi, uning rivojlanish jarayoni, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ta`limning roli to'g'risida tanishtirish. **Fanining vazifalari** – O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida, yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o'rgatish.

3. Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati mazmunini yetarlicha bilimlarga ega bo 'lish
2.	Pedagogika fanining paydo bo'lish tarixi, uning rivojlanish bosqichlari
3.	Ta'lim tizimidagi o'rni, didaktika, tarbiya nazariyasi, ta'lim tizimini boshqarish va korreksion pedagogikaga oid ma'lumotlarni egallash
4.	……

4. Ta'lim natijalari (TN)	
Kasbiy kompetensiyalar:	
TN1	O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati mazmunini yetarlicha bilimlarga ega bo 'lishi lozim;
TN2	Pedagogika fanining paydo bo'lish tarixi, uning rivojlanish bosqichlari va ta'lim tizimidagi o'rni yetarlicha bilimlarga ega bo 'lishi lozim;
TN3	Talabalarda didaktika, tarbiya nazariyasi, ta'lim tizimini boshqarish, pedagogik firklarning tarixiyligi va pedagogik mahoratning mohiyati yuzasidan nazariy bilimlarni hosil qilish, Fan bo'yicha nazariy, seminar mashg'ulotlarini tashkil etish o'rganish.
TN4	Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogic mahorat va uning tarkibi xususida bilimga ega bo'lish.
TN5	Talabalarga ijtimoiy yordamga muxtoj shaxslarga ta'lim berish, ularni shaxs sifatida rivojlantirish borasidagi xalqaro tajribalarni o'rganish;
Ko'nikmalar:	
TN5	Umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmuni, milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatini yaratish;
TN6	Bo'lajak mutaxassislarda shaxs tarbiyasi masalalarini hal etishda Sharq mutafakkirlari (Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla

	Avloniy) va G‘arb olimlarining (Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy kabi) pedagogik qarashlarini ta’lim muassasasi amaliyotiga samarali tadbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish;
TN7	Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quv-tarbiya jarayonidagi muammolarni hal etish.
TN8	Ta’lim va tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishni pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratiga ega qilib tayyorlash.

5. 2027/2028-o‘quv yili 5-semestr uchun fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		**Soat**
Ma’ruza (M)		**24**
M1	**O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.** O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risda”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati mazmuni asosiy tamoyillari. “Pedagogiklik maqomi to’g’risida”gi Qonun Ta’lim tizimi va turlari. [2]	2
M2	**Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obyekti, metodlari.** Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo’lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o’tkazish. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. “Individ” va “shaxs” tushunchasi. Shaxs rivojlansihining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.[3]	2
M3	**Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida. Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta’lim metodlari va vositalari.** Ta’lim nazariyasi (didaktika)-pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta’lim jarayoni mohiyati. O’rganish bilish faolligi shakli sifatida. O’qitish va o’rganish jarayonlari tavsifi, o’quv jarayonida ularning o’zaro bog’liqligi. Sharq va G’arb mutafakkirlarining gnoseologik g’oyalari ta’lim jarayoni asosi sifatida. O’quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta’lim tamoyillari va qonuniyatlari. Ta’lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktika ta’lim metodlari va tasnifiga turlicha yondashuvlar. Sharq mutafakkirlari ta’lim metodlari haqida. Ta’lim metodlari samaradorligini oshirish yo’llari [1,3]	2
M4	**Ta’limni tashkil qilish shakllari va turlari. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etish.** Ta’lim turlari. Ta’limni tashkil qilish shakllari. Ta’limni tashkil qilishning an’anaviy sinf-dars shakli. Dars turlari va tuzilishi. Ta’limni tashkil qilishning noan’anaviy shakli Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O’quv faoliyatini natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko’nikma va malakalarini baholash mezonlari.[2]	2
M5	**Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiya metodlari va turlari.** Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari, tarbiya jarayonining xususiyatlari, tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli, ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari, tarbiya qoidalari va ularning mohiyati. Tarbiyaning umumiy metodlari va tarbiya turlari. [1,2]	2
M6	**Ta’lim muassasi menejmenti. Korreksion (maxsus) pedagogika** Maktabni boshqarish va unga rahbarlik qilishning qonun qoidalari. Maktab boshqaruvida davlat hujjatlarining yuritilishi. Maktab jamoasi va pedagogic kengashning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rni. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari va kategoriyalari. Anomal o’quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo’nalishlari. Korreksion pedagogikaning paydo bo’lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishqa korreksion ishlar tamoyillari va metodlari. [1]	2
M7	**Psixologiya fanining predmeti, sohalari va tadqiqot metodlari.** Psixologiya sohasida ilmiy-tekshirish olib borishning o‘ziga xosligi. Psixologik tadqtqot metodlari: kuzatish, eksperiment, psixofiziologik metodlar, differensial metod, suhbat va so‘rov, test, korrelyatsiya, modellashtirib, faoliyat natijasini o‘rganish. Psixologiyada ilmiy tekshirish olib borishda	2

	zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Psixologiya fanining soha va tarmoqlari. Psixologiya fanining asosiy prinsiplari; determenizm prinsipi, ong va faoliyaat birligi prinsipi, ongning faoliyatda shakllanishi prinsipi. [1,2]	
M8	**Bilish jarayonlari psixologiyasi: Sezgi va Idrok** Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, diqqat xotira tashqi olam bilan ongni bog'lovchi vosita ekanligi haqida, fiziologik asosilari, xususiyatlari haqida, shaxsning emotsional sohasi: kayfiyat, hissiyot, emotssiyalar va iroda, shaxsning individual tipologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyatlar, psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari [1,2]	2
M9	**Diqqat va Xotira.** Diqqatning boshqa psixik hodisa va jarayonlar bilan taqqoslash. Persteptiv, intellektual va ijro etuvchi diqqat. Diqqatning psixik o'rni haqidagi bahslar va uning tabiati. Diqqatning mustaqil faoliyat ekanligi yoki bu boshqa psixik faoliyat uchun ham xosligi. Diqqatning hajmi. Diqqat hajmining individual xususiyatlari. Diqqatning to'planishi. Diqqatning barqarorligi. Xotira haqida tushuncha. Xotira turlari.[1,2]	2
M10	**Xayol va Tafakkur.** Hayol — inson ongida mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlar, voqealar,g'oyalarni yaratish. Hayol yordamida odam ko'rmagan narsalarni tasavvur qilishi, kelajakni ko'z oldiga keltirishi, ijodiy mahsulot yaratishi. Tafakkur va uning xususiyatlari. Tafakkur turlari va shakllari. Tafakkur operatsiyalari va qonuniyatlari. Tafakkur sifatlari. Tafakkurning individual xususiyatlari va rivojlanishi [1,2]	2
M11	**Shaxs hissiy-emotsional sohasi.** Shaxs rivojlanishi jarayonida faoliyat, hal qiluvchi tushuncha ekanligi. Motivastion ehtiyoj va intellektual bilish sohalar orasidagi qarama-qarshiliklar. Ichki va tashqi motivastiyalarning umumiy tavsifi. Ichki motivastiyaning tarkib topishida bolalikning ahamiyati. Motivning rivojlanish bosqichlari. [1,2]	2
M12	**Shaxsning individual xususiyatlari: Temperament, xarakter, qobiliyatlar** Temperament, xarakter, qobiliyatlar, psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari [1]	2
Seminar mashg'ulot (S)		24
S1	O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.	2
S2	Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obyekti, metodlari.	2
S3	Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim metodlari va vositalari.	2
S4	Ta'limni tashkil qilish shakllari va turlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.	2
S5	Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiya metodlari va turlari.	2
S6	Ta'lim muassasasi menejmenti. Korreksion (maxsus) pedagogika	2
S7	Psixologiya fanining predmeti, sohalari va tadqiqot metodlari.	2
S8	Bilish jarayonlari psixologiyasi: Sezgi va Idrok	2
S9	Diqqat va Xotira.	2
S10	Xayol va Tafakkur.	2
S11	Shaxs hissiy-emotsional sohasi: Iroda va Hissiyot	2
S12	Shaxsning individual xususiyatlari: Temperament, xarakter, qobiliyatlar	2
6. Mustaqil ta'lim topshiriqlari*		72
1	O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" va ta'lim tizimi turlari.	4
2	Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifasi, ilmiy tadqiqot metodlari.	4

3	Shaxsningrivojlanishi, tarbiyasivaijtimoiylashuvi, tarbiyamaqsadivavazifalari.	4
4	Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida. Ta'lim paradigmalari.	4
5	Ta'lim jarayoni yagona pedagogic tizim sifatida. Ta'lim tamoyillari.	4
6	Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar. (DTS, O'quv reja, o'quv dastur, darsliklar).	4
7	Ta'lim metodlari tasnifi ta'lim shakllarining tasnifi.	4
8	Tarbiya turlari mazmuni, maqsad va vazifalari, shakl va metodlari tasnifi.	4
9	Ta'lim muassasasini boshqarishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar: Maktab nizomi, Ustavi, Maktab ish rejasi(istiqbolli, yillik, joriy ish rejalar)si.	4
10	Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.	4
11	Psixologiya fanining taraqqiyoti tarixi	4
12	Psixika va ongning taraqqiyoti	4
13	Muloqot. Guruh psixologiyasi.	3
14	Shaxs nazariyasi va faoliyati	3
15	Xulq-atvorning psixofiziologik asosi	3
16	Bilish jarayonlari psixologiyasi: Sezgi	3
17	Idrok va Illyuziya	3
18	Diqqat	3
19	Xotira	3
20	Shaxsning individual xususiyatlari: Temperament, Xarakter, Qobiliyat	3

7. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- Ma'ruzalar;
- amaliy, laboratoriya ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

8. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar

Fangaoidnazariyvauslubiytushunchalarnito'lao'zlashtirish, tahlilnatijalarinito'g'riaksettiraolish, o'rganilayotganjarayonlarhaqidamustaqilmushohadayuritishvanazoratuchunberilganvazifavatopshiriqlarni bajarish, yakuniynazoratbo'yichayozmaishnitopshirish.

9. Talabalar bilimini baholash mezoni

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasawurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;

► barcha amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan bo‘lsa;
► nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo‘llash olish;
► tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
► fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;
► fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo‘lsa;
► fan bo‘yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘quv dasturi doirasida bajarsa;
► fan bo‘yicha berilgan savollarga to‘g‘ri javob bera olsa;
► fan bo‘yicha konspektini puxta shakllantirgan bo‘lsa;
► fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;
► barcha amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa.

d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
► fan haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa;
► fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘yilsa;
► fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;
► bayon qilish ravon bo‘lmasa;
► fan bo‘yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
► fan bo‘yicha matn puxta shakllantirilmagan bo‘lsa.

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:
► fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rilmagan bo‘lsa;
► fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga doir hech qanday tasawurga ega bo‘lmasa;
► fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajarmagan bo‘lsa;
► fan bo‘yicha matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa;
► fan bo‘yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;
► fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
► fanni bilmasa.

10. Foydalanilgan adabiyotlar

	Asosiy adabiyotlar
1.	B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. “Sanostandart” nashriyoti. Toshkent 2017 y.
2.	R.A.Mavlonova, O.To’rayeva, K.M.Xoliqberdiyev, Pedagogika. Darslik T:. O’qituvchi 2018 yil.
3.	Xaydarov F.I.,. Xalilova N. “Umumiy psixologiya” Darslik.-T.: 2017 y.
4	Eshquvvatov T.E. Umumiy psixologiya. O`quv qo’llanma – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2025 y. - 304 bet.
	Qo‘shimcha adabiyotlar
4	K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma.T:.O‘qituvchi 2010-yil
5.	J.Hasanboyeva., K.Turaqulov X., Pedagogika fanidan izohli lug’at. -T.: Fan va texnologiya.
6.	Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: Noshir, 2011.
7.	K. Hasanova T:. 2021y.Pedagogikai umumiy. Darslik. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti.
	Axborot manbalari
9.	www.history.ru
10.	www.natura.com
11.	www.archeology.ru
12.	www.archeology.com

13.	https://uz.warbletoncouncil.org/arqueologiahttps://education.nationalgeographic.org/resource/archaeology/https://www.saa.org/about-archaeology/what-is-archaeologyhttps://www.nps.gov/subjects/archeology/index.htmhttps://www.amnh.org/explore/ology/archaeology/what-is-archaeology

11.	**O‘QUV DASTURINING QIYOSIY TAHLILI**
O‘quv dasturi xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning 4**ta**AQSH davlatning OTM (Michigan State University **136o‘rin,** University of Minnisota **195 o’rin,** University of Virginia **260o‘rin,**Vanderbilt University **261o’rin)** ta’lim dasturlari tahlil qilinib, o‘quv dasturiga yangi 6 ta mavzular bilan boyitilib, yangiliklar kiritildi.	
Xalqaro OTM dasturlariga linklar: 1.https://psychology.msu.edu/undergraduates/syllabi.html 2.https://drive.google.com/drive/folders/1mBjE4vhbjrm6QZHBtA3ysJltUv1kwhAY 3. https://pages.stern.nyu.edu/~jhaidt/psych101syl.doc 4.https://memory.psy.vanderbilt.edu/files/teaching/SyllabusPSY2150F25_v1.pdf	

Kafedra mudiri: **dots.D.N.Sulaymanova**

Fan mas`uli: **prof.K.Xasanova**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi professori Kibriyo Hasanova tomonidan "Umumiy Pedagogika" fani bo'yicha tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Mazkur "Umumiy Pedagogika" fani bo'yicha tayyorlangan fan dasturiga pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta`lim-tarbiya nazariyasi, uning rivojlanish jarayoni, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ta`limning roli to'g'risida tanishtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish masalalari yoritilgan.

Bu fan dasturi maruza va seminar mashg'ulotlar mavzulari mazmuni jihatdan to'g'ri ketma-ketlikda tuzilgan bo'lib, pedagogikani o'rganishdagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun yetarli darajada ma'lumotlar bilan qamrab olingan. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish, tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish shakllaridan foydalanish tavsiya etilgan. Pedagogik ijodkorlik va uning o'ziga xosligi, zehn va pedagogik tafakkur, pedagogik izlanish, innovatsion faoliyat va innovatsion salohiyat, impirik ma'lumotlar, misollar va ilyustratsiyalar, ilmiy dalillar, ilmiy bilimlarning tarkibi, ilmiy dalillarning o'ziga xos xususiyatlari kabi bilimlar bazasiga ega bo'ladi.

Shuning uchun bu "Umumiy Pedagogika" fanidan tuzilgan fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining bakavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv rejasi asosida tayyorlangan va o'qituvchi bu fandan dars berayotganda o'quvchilarga pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat bilan, o'quvchilarga sodda va oson qilib tushintirishda bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi Kibriyo Hasanova tomonidan tayyorlangan "Umumiy Pedagogika" fan dasturidan bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga ta'lim berishda foydalanish mumkin deb hisoblayman va foydalanishga tavsiya etaman.

.

Samarqand davlat pedagogika instituti
dotsenti p.f.b.f.d. (PhD) **E.A.Abdumannotov**

NINIG IMZOSIN
TASDIQLAYMAN

SAMARQAND DAVLAT
PEDAGOGIKA INSITUTI
XODIMLAR BO'LIMI BOSHLIG'

XODIMLAR BO'LIMI